

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

91-328-88-38 nomerga telegram orqali bog'lanishingiz yoki telegramdan @jek567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi. Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.


Katta guruhlarga may oyi 3-hafta faoliyat ishlanmani to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:
@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.
Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet veb-saytlarga joylamang.
Telegram orqali kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA HIYONAT
QILMANG.**



_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
maktabgacha ta'lim tashkiloti
_____ h tarbiyachisi

_____ ning
takomillashish dasturi "Ilk qadam"
davlat o'quv dasturi birinchi nashri
asosida

"Kundalik hayotdagi qurilmalar:
Smartfonlar, gadgetlarni foydalanishning
foyda va zararlari"
mavzusida tashkillangan

FAOLIYAT ISHLANMASI

(May oyining 3-haftasi)



Guruh: Katta guruhlar uchun

Oy mavzusi: Uyim–mening kichik olamim

Hafta mavzusi: Kundalik hayotdagi qurilmalar: Smartfonlar, gadjetlarni ishlatishning foyda va zararlari

Ta

Smartfon, planshet, kompyuter rasmlari yoki haqiqiy qurilmalar. Foydali va zararli holatlarni aks ettiruvchi rasm kartochkalar.

- Ularni foydali va zararli holatlarni aks ettiruvchi rasm kartochkalar olishga o'rgatish.



Tarbiyaviy:

- Texnik vositalardan oqilona foydalanish, vaqtini to'g'ri foydalanishni ko'nikmasini shakllantirish.
- Bolalarda sog'lom turmush tarzi, texnik vositalarga nisbatan mas'uliyat hissini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi:

- Nutq, tafakkur, mantiqiy fikrlash, kuzatuv qobiliyati va xotira qobiliyatlarini rivojlantirish.

□ **Kerakli jihozlar**

- Smartfon, planshet, kompyuter rasmlari yoki haqiqiy qurilmalar.
- Foydali va zararli holatlarni aks ettiruvchi rasm kartochkalar.
- “Foyda” va “Zarar” yozilgan ikkita plakat.
- Multimedial slayd yoki videorolik (bolalar uchun mos).



Faoliyatning borishi

1. Tashkiliy qism (3 daqiqa)

Tarbiyachi bolalar bilan salomlashadi:

— Assalomu alaykum, bolalar! Bugun biz sizlar bilan juda qiziqarli mavzuda suhbatlashamiz. Atrofimizda qanday qurilmalar bor?

(Bolalar javob berishadi: telefon, televizor, kompyuter, planshet, soat...)

Tarbiyachi:

— Ajoyib! Ularning hammasi **gadjetlar** deb ataladi. Bugun biz ularning foydasi haqida bilib olamiz.

2. **2. qism (2 daqiqa)**

Tarbiyachi: **Smartfon**

Smartfon — bu kichik kompyuter, u orqali telefon qilish, rasmga tushish, musiqa eshitish, video qayd etish va dars o'rganish mumkin.

Gadjetlar — bu bizning hayotimizni qulaylashtiruvchi qurilmalar (planshet, quloqchin, aqlli soat, noutbuk va boshqalar).

Foydali tomonlari:

- ☐ Yangi narsalarni o'rganish
- ☐ Darslar, qo'shiqlar, ertaklar eslatib berish
- ☐ Aloqa qilish, video qo'ng'iroq qilish, onlayn bilan gaplashish
- ☐ Tez ma'lumot topish

Zararli tomonlari:

- ☐ Juda ko'p ishlatilsa — ko'z, miya, bo'yin shikastlanadi
- ☐ Uxlash vaqtida ishlatish zararli
- ☐ O'yinlarga berilib, darsni unutish mumkin
- ☐ Begona odamlar bilan gaplashish xavfli



3. Faol o'yin – "Foyda yoki zarar" (7–8 daqiqa)

O'yin tartibi:

Tarbiyachi biror holatni aytadi, bolalar "Foyda" yoki "Zarar" plakatiga borishadi.

- ☐ "Telefon orqali onam bilan gaplashdim." – Foyda
- ☐ "Ko'p vaqt telefon o'ynadim." – Zarar
- ☐ "Planshetda dars o'rgandim." – Foyda
- ☐ "Telefonni qayotganda yonimda qo'ydim." – Zarar

(O'yin har bir qatnashchining fikri asosida o'tkaziladi ☐)



4. Xulosa (5 daqiqa)

Tarbiyachi yakunlaydi:

— Bolajonlar, ko'rdingizmi, har bir texnika bizga yordam beradi, lekin to'g'ri ishlatish kerak.

Kompyuter va telefon — do'stimiz, lekin haddan ortiq foydalanmash kerak!

Birgalikda shior aytiladi:

"Texnikadan foyda olamiz, unga qaram bo'lmaymiz!"

5. Mustahkamlash uchun topshiriq

Bolalarga "Smartfon bilan foydali ish qilayotgan bola" rasmini chizish topshiriladi.

Baholash:

Faol qatnashgan, to'g'ri javob bergan bolalarga:

“Texnologiya bilimdoni” yorlig‘i yoki stiker beriladi.

Qurish, konstruksiyalash va matematika markazi

Telefon

Maqsad: bolalar turli hajmdagi qog‘oz qutilardan istagan maishiy texnikasini yasashni, ko‘rsatmalarga qat’iy amal qilgan holda sxema bilan ishlashni o‘rganadilar.

Kerakli jihozlar va

materiallar: namuna, mavzuli rasmlar, turli hajmdagi qog‘oz qutilar, rangli qog‘oz, naylar.

Faoliyat

1. Namuna va rasmlarni tomosha qilish.
2. Bajarilishi kerak bo‘lgan ishni rejalashtirish.
3. Ijodiy ish.

Qo‘shimcha: tayyor bo‘lgan telefonlar bilan

«Aloqachi» uyini o‘ynashni taklif qilish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: namuna va rasmlar qog‘oz qutilardan maqsadli foydalanishga ahamiyat beriladi.

Qurish, konstruksiyalash va matematika markazi

Muzlatgich

Maqsad: bolalar mustaqil ravishda qog‘oz qutilardan muzlatgich yasashni o‘rganishlari kerak.

Kerakli jihozlar: namuna, turli hajmdagi qog‘oz qutilar, kumush mavzu asosida rasmlar.

FaolmInish borishi:

1. Namuna va rasmlarni tomosha qilish.
2. Bijariladigan ishni rejalashtirish.
3. Ijodiy ish.
4. Bijarilgan ishlarni do‘stlari bilan muhokama qilish.

Qo‘shimcha: xarakit o‘yin orqali, muzlatgichni ichini to‘ldirishni taklif qilish.

Alohidn m.gibor qaratiladi: bolalarning konstrukt kobiliyatlarni rivojlantirish, namunaga e‘tibor qaratishi, qog‘oz qutilardan maqsadli foydalana olishiga ahamiyat beriladi.

(syutjetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish

Pochta

Maqsad: bolalar pochta va uning faoliyati haqida tushuichaga ega bo‘ladilar.

Lug‘atlarida marka, indeks, banderol kabi yangi so‘zlarni o‘rganishadi.

Kerakli jihozlar va materiallar: marka, pochta uchun maxsus kiyimlar, xatjild (konvert), telefon, banderol, muhr uchun plastilin.

Faoliyatning borishi:

1. Rollarni taqsimlash.



2. O'yinni rejalashtirish.

3. O'yinni o'ynash.

4. O'yin orqali olgan yangiliklari va bilimlari bilan o'rtoqlashish.

Qo'shimcha: «Pochtachi Pechkin» obrazi aks etgan multfilmni tomosha qilish.

Alohida e'tibor qaratiladi: ijodiy taffakkurni rivojlanganiga ahamiyat beriladi.

Syujetli- rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi

Muzqaymoq kafesi

Maqsad: bolalar kafe ishchilarining mehnati bilan tanishadilar, hayoliy tasavvurlari orqali ijodiy hikoyalarni tuzadilar va uni sahnalashtira oladilar.

Kerakli jihozlar va materiallar: muzqaymoq rasmi, muzqaymoq tayyorlash uchun kerakli atributlar, uchun maxsus pullar, zurur Idishlar, stol va stulchalar.

Faoliyatning

1. Rollarni o'ynash.

2. O'yinlarni o'ynash.

3. O'yinning bo'yi.



Qo'shimcha: bolalar rollari bilan almashishi mumkin, muzqaymoqning tayyorlashi va jamlangan menyuni tayyorlash.

Alohida e'tibor qaratiladi: ijodiy tasavvurlarini boyitish, o'yinchoqlardan o'z o'rnida kerakli joyda foydalanishiga ahamiyat beriladi.

Til va nutq markazi

«Dadamga yordamchiman»

Maqsad: bolalar maishiy anjomlar va ularning vazifalarini, elektr anjomlar insonlarning kundalik xayotidagi yordamchilari ekanligini, ulardan noto'g'ri foydalansa hayotlari va sog'liqlari uchun xavfli ekanini, nosoz maishiy anjomlarni ayrim joylarini kattalar yordamida ta'mirlashni o'rganadilar.

Kerakli jihozlar va materiallar: mavzuli

rasmlar, tarqatma materiallar, maishiy anjomlar tasvirlangan kartochkalar.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzuli rasmlarni ko'rish.
2. Rasmlarni izohlash.
3. Maishiy anjomlarni nomlarini aytib chiqish.
4. Bu anjom nima uchun xizmat qilishini do'stlari bilan tahlil qilish.

Qo'shimcha: xar bir maishiy anjomlarni bajaradigan vazifalarini aytib berishlarini taklif qilish.

Alohida e'tibor qaratiladi: maishiy anjomlarga extiyotkorona yondoshishiga ahamiyat beriladi.

Til va nutq markazi

«Maishiy anjomlar» (Sorting)

Maqsad: bolalar maishiy anjomlardan to'g'ri foydalanadilar, ularni turlariga ko'ra ajrata oladilar, turli qat'iy korxonalarning nomlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Kerakli jihozlar va materiallar: maishiy texnikalar tasvirlangan kartochkalar.

Faoliyatning borishi:

1. Kartochkalarni mavzuga qo'yish.
2. Ular turlariga ko'ra ajratish.
3. Do'stlari bilan o'zaro tahlil qilish.

Qo'shimcha: maishiy anjomlarni qanday foydalanishni taklif etish.

Alohida e'tibor qaratiladi: nima uchun foydalanishni taklif qilish.

Fan va tabiat

Magnit

Maqsad: bolalar magnitning xususiyatini aniqlaydilar, nima uchun kerakligi va uning vazifasi haqidagi bilimlari o'rgatish.

Kerakli jihozlar va materiallar: turli kattalikdagi magnitlar, metall, yog'och va plastmassali buyumlar, AKT.

Faoliyatning borishi:

1. Jihozlarni tartib bilan stol ustiga joylashtirish.
2. Magnit bilan bog'liq bo'lgan video lavhalarni ko'rish.
3. Birin ketin magnit parchalarini turli predmetlarga yaqinlashtirish.
4. Magnitning tortish kuchi qaysi jismlarga to'g'ri kelishini aniqlash.
5. Tajriba natijalari yuzasidan munozara qilish.

Qo'shimcha: tarbiyachi bolalardagi qiziqishga qarab magnit bilan ishlashni taklif qilish.

Qo'shimcha: materallarni tavsiya qilish.

Alohida e'tibor qaratiladi: idrok etish va xulosa chiqarishiga ahamiyat beriladi.

